



№ 1/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**



ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 1 2026 fevral

## Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
2022-yil 25-oktyabrda  
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan  
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va  
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
Oliy attestatsiya komissiyasi  
Rayosatining 2024-yil 8-maydagi  
№354-sonli qarori bilan  
**Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy attestatsiya  
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy  
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar  
ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili: 170100 Andijon shahri,  
"Do'stlik" ko'chasi, 4uy, 216-xona.  
Electron manzil: info@adpi.uz  
Telegram: ADPI\_Ilmiy\_xabarnomasi  
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

1/1

**BOSH MUHARRIR:**  
**B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor**  
**Mas'ul muharrir:**  
**B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor**

### TAHRIR KENGASHI

**S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi**  
**I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor**  
**Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor**  
**A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor**  
**B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor**  
**A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor**  
**Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor**  
**Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.A. Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor**  
**Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor**  
**A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). professor**  
**T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent**  
**M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent**  
**A.A. Zaparov- texnika fanlari nomzodi, professor**  
**U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor**  
**M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor**  
**L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor**  
**Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent**  
**D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**O'M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**K.S. Karimov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**  
**M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)**  
**N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)**  
**M.I. O'rinboev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

**Muharrirlar:**  
**O.Karimov,**  
**U.Malikova,**  
**B. Mashrabova.**

## MUNDARIJA

### PEDAGOGIKA

<b>Hasanov Sh.A.</b> Adabiyot fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari talqini .....	4
<b>Qoraboyev J.B.</b> "Giperbola konseptual semantikasi"ni voqelantiruvchi til birliklarining lingvokognitiv, psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvostilistik tavsifi .....	8
<b>Umurzaqova N.S.</b> Bo'lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi .....	13
<b>Камалходжаева С.С.</b> Язык как объект лингвистического исследования .....	16
<b>Абдуллаева А.Э.</b> Современные и передовые педагогические технологии в преподавании иностранных языков .....	19
<b>Karimov O.T., Mirzayev O.X.</b> Talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan "lumiya" metodi asosida ishlashga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari .....	23
<b>Jo'rayeva M.A.</b> Kasbiy tayyorgarlikni integrativ yondashuv asosida shakllantirish .....	29
<b>Ikromov M.X., Abduraimova M.A.</b> Talabalariga muhandislik kompyuter grafikasidan foydalanib o'qitishning mazmuni .....	33
<b>Ikromov M.X., G'ulomova M.N.</b> Rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanish .....	37
<b>Mamatisaqova G.A.</b> Farmasevtika ishi yo'nalishida kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirishda xorij tajribasi .....	41
<b>Mamadaliyev B.K.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish .....	45
<b>Axmedova D.X.</b> Boshlang'ich ta'limda ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirishning yangi metodlari .....	48
<b>Kosimova G.M.</b> Yangi pedagogik texnologiyalar vositasida darsliklar bilan ishlash bo'yicha o'quv jarayonini loyihalash .....	53
<b>Xoldarova M.Q., Tairova M.B.</b> Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida nutq o'stirish darslari orqali "soft skills" ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi .....	57
<b>Abdurahmonova H.V.</b> Saniye Benjik Kanganing o'yin pedagogikasi va rivojlantiruvchi muhit haqidagi qarashlari .....	61
<b>Xurshidbekov A.M.</b> Erkin kurashchilarda tezlik sifatining shakllanishi va rivojlanishining uslubiy asoslari .....	67
<b>Olimjonov O.O.</b> Integratsiyalashgan tarbiya: talabalarda jismoniy salohiyat va ma'naviy immunitetni shakllantirish usullari .....	71
<b>Usarov M.M.</b> Talabalar estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy xalq o'yinlaridan foydalanining dolzarbligi .....	75
<b>Karimova F.Z.</b> Integrativ yondashuv asosida bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy -metodologik asoslari .....	80
<b>Xakimov Sh.T.</b> Yosh belbog'li kurashchilarga texnik usullarni o'rgatish bosqichlari .....	83
<b>O'rinboyev L.X.</b> Farmakodinamikaning fan sifatida farmakologiyada tutgan o'rni .....	89
<b>Sobirjonov I.T.</b> Farmakokopetentlik tushunchasi va uning asosiy komponentlari .....	95
<b>No'monova G.D.</b> Klinik farmakologiya fani o'qitish tizimining amalyotdagi holatini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish .....	100
<b>Xodjayev M.K.</b> Oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlashning pedagogik aspektlari .....	105
<b>Kodirov M.A., Otashev D.R.</b> Basketbolda sportchilarni jaroxatlanishni oldini olish va tiklash usullari .....	110
<b>Samatov D.T., Abdullaev G'A.</b> Umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligini darsdan tashqari mashg'ulotlar asosida rivojlantirishning pedagogik modeli .....	114
<b>Samatov D.T., Abdullaev G'A.</b> Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish metodikasi .....	118
<b>Mullajonov Sh.I.</b> Sport turlarining tavsifi va sportchi faoliyatida ruhiy tayyorgarlikning roli .....	124
<b>Otashev D.R., Otasheva O.H.</b> O'smirlarnigh psixologik munosabatlari shakllantirishda jismoniy tarbiyani o'rni .....	129

**O'zbekiston tajribasida:** O'zbekiston tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida (Toshkent tibbiyot akademiyasi, Andijon va Samarqand davlat tibbiyot universitetlari) 2020-yildan boshlab kredit-modul tizimi joriy qilinmoqda. Klinik farmakologiya fanida- 3–4 kurs talabalari uchun 4–6 kredit ajratiladi;

\*Har modulda 2–3 asosiy klinik yo'nalish (kardiologiya, infeksiyon kasalliklar, endokrinologiya va boshqalar) qamrab olinadi;

\*Darslarning 50% gacha interaktiv va klinik muhitda o'tkazilishi ta'minlanadi;

\*Baholash jarayonida OSCE va test tizimlari integratsiyalashgan holda qo'llaniladi. . [30,32,33].

### **5) Natijalar va samaradorlik:**

- Kredit-modul tizimi asosida o'qitilgan talabalar farmakoterapiya bo'yicha qaror qabul qilishda 20–25% yuqori natija ko'rsatgan;

- Talabalarning mustaqil ishlash va dalillarga asoslangan tibbiyotdan foydalanish ko'nikmalari sezilarli darajada oshgan;

- Klinik holatlarni tahlil qilishda analitik fikrlash va amaliy qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllangan.

Xulosa shundan iboratki, Klinik farmakologiya fanini kredit-modul tizimi asosida o'qitish:

- Talabalar klinik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
- O'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi;
- Mustaqil ta'lim va o'zini baholash madaniyatini shakllantiradi;
- Talabalarni zamonaviy tibbiyot amaliyotiga tayyor, malakali mutaxassis sifatida yetishtirish imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Kredit-modul tizimini joriy etish metodik ko'rsatmalar, Toshkent, 2022.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qarori. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish to'g'risidagi qarori.

3. Izimovna U.R. "Kreditno-modulnaya sistema organizatsii obucheniya kak faktor formirovaniya umeniy samoobrazovatelnoy deyatelnosti studenta". Avtoreferat. – Orenburg. 2010.

4. Усмонов Б.Ш., Хабибуллаев Р.А. Олий ўқув юртларида ўқув жараёнини кредит модуль тизимида ташкил қилиш. Ўқув қўлланма. –Тошкент, ТКТИ, 2020. 120-бет

UO'K 373.5:796

### **OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FUTBOL MURABBIYLARINI TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI**

<https://zenodo.org/records/18754732>

**Xodjayev Mansurjon Kabildjanovich**

*Andijon davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlash jarayonining pedagogik asoslari hamda ularni takomillashtirish metodikasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda futbol murabbiylarini kasbiy-pedagogik tayyorlashning dolzarb muammolari, mavjud ta'lim tizimidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari ochib berilgan, shuningdek, futbol murabbiylarini tayyorlashda kompetensiyaviy, tizimli va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida metodik takomillashtirish imkoniyatlari yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** *futbol murabbiyi, oliy taʼlim muassasasi, sport pedagogikasi, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik asoslar, kompetensiyaviy yondashuv, metodik takomillashtirish, sport taʼlimi, pedagogik texnologiyalar, murabbiylik faoliyati.*

**Аннотация.** *В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения проанализированы педагогические основы процесса подготовки футбольных тренеров в высших учебных заведениях, а также методика их совершенствования. В исследовании раскрыты актуальные проблемы профессионально-педагогической подготовки футбольных тренеров, недостатки существующей системы образования и пути их устранения. Обоснована значимость компетентностного, системного и деятельностно-ориентированного подходов в подготовке футбольных тренеров, а также освещены возможности методического совершенствования на основе современных педагогических технологий.*

**Ключевые слова:** *футбольный тренер, высшее учебное заведение, спортивная педагогика, профессиональная подготовка, педагогические основы, компетентностный подход, методическое совершенствование, спортивное образование, педагогические технологии, тренерская деятельность.*

**Abstract.** *This article analyzes, from scientific-theoretical and practical perspectives, the pedagogical foundations of the process of training football coaches in higher education institutions, as well as the methodology for its improvement. The study reveals actual problems of professional and pedagogical training of football coaches, shortcomings of the existing education system, and ways to overcome them. The importance of competency-based, systemic, and activity-oriented approaches in the training of football coaches is substantiated, and the possibilities for methodological improvement based on modern pedagogical technologies are highlighted.*

**Keywords:** *football coach, higher education institution, sports pedagogy, professional training, pedagogical foundations, competency-based approach, methodological improvement, sports education, pedagogical technologies, coaching activity.*

Bugungi globallashuv va sport sohasidagi jadal rivojlanish sharoitida futbol nafaqat ommaviy sport turi, balki ijtimoiy-madaniy hodisa, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashning muhim vositasi sifatida ham namoyon boʻlmoqda. Jahon miqyosida futbolning raqobatbardoshligi ortib borayotgani, professional klublar va milliy terma jamoalarga qoʻyilayotgan talablarning kuchayishi futbol murabbiylarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligiga nisbatan ham sifat jihatidan yangi yondashuvlarni taqozo etmoqda. Shu bois futbol murabbiylarini tayyorlash masalasi oliy taʼlim tizimining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy taʼlim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlash jarayoni faqatgina sport-texnik va jismoniy tayyorgarlik bilan cheklanib qolmasdan, balki boʻlajak murabbiy shaxsini pedagogik, psixologik, metodik va ijtimoiy jihatdan kompleks rivojlantirishni nazarda tutadi. Zamonaviy futbol murabbiyi nafaqat yuqori sport mahoratiga ega mutaxassis, balki taʼlim-tarbiya jarayonini samarali tashkil eta oladigan, sportchilar bilan pedagogik muloqot olib borish, motivatsiyani shakllantirish, jamoada ijobiy psixologik muhit yaratish, shuningdek, shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida ishlay oladigan yetuk pedagog boʻlishi lozim.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish, xususan futbolni ommalashtirish va professional darajada yuksaltirish borasida qator meʼyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, oliy taʼlim muassasalarida sport mutaxassislarini tayyorlash tizimini modernizatsiya qilishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bu esa futbol murabbiylarini tayyorlash jarayonini ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlar, kompetensiyaviy model va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ayni paytda amaliyot shuni koʻrsatmoqdaki, oliy taʼlim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlash tizimida nazariya va amaliyot uygʻunligining yetarli darajada

ta'minlanmagani, pedagogik komponentning ikkinchi darajaga tushib qolayotgani, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish darajasining pastligi kabi muammolar mavjud. Bu holat bo'lajak murabbiylarning kasbiy kompetensiyalarini to'liq shakllantirishga to'sqinlik qilmoqda hamda ularning real sport-pedagogik faoliyatga moslashuvini qiyinlashtirmoqda.

Shu munosabat bilan oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlashning pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, mazkur jarayonning mazmuni, shakl va metodlarini takomillashtirish, kompetensiyaviy, tizimli va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida samarali model ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan ushbu muammolarni yoritish, mavjud tajribani tahlil qilish hamda futbol murabbiylarini tayyorlash jarayonini pedagogik jihatdan takomillashtirish yo'llarini asoslab berish maqsad qilib qo'yilgan.

Bugungi kunda futbol murabbiyi faoliyati faqat sport texnik-taktik bilim va ko'nikmalar bilan cheklanib qolmay, balki u pedagog, tarbiyachi, motivator, menejer va psixolog vazifalarini ham bajarishini taqozo etadi. Bunday ko'p qirrali kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun bo'lajak murabbiylarda pedagogik kompetensiyalar, kommunikativ madaniyat, reflektiv fikrlash, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ishlash malakalari yetarli darajada shakllantirilishi zarur. Ayni paytda amaldagi tayyorlov tizimida ushbu jihatlar yetarlicha e'tiborga olinmayotgani, ta'lim jarayonida sport-pedagogik komponentning ikkinchi darajaga tushib qolayotgani mazkur mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, xususan futbolni ommalashtirish va professional darajada yuksaltirish bo'yicha qator konsepsiya, farmon va qarorlar qabul qilinib, oliy ta'lim muassasalarida sport sohasi mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda murabbiy kadrlarning sifati, ularning pedagogik va metodik tayyorgarligini kuchaytirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish masalalariga alohida urg'u berilgan. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlash jarayonini ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shuningdek, xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan futbol davlatlarida murabbiylarni tayyorlash jarayoni kompetensiyaviy, tizimli va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida tashkil etilib, ularning pedagogik tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida esa mazkur yondashuvlarni futbol murabbiylarini tayyorlash jarayoniga to'liq integratsiya qilish darajasi yetarli emas. Bu esa milliy futbol maktabining raqobatbardoshligini ta'minlash nuqtayi nazaridan mazkur mavzuning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlashning pedagogik aspektlarini chuqur ilmiy tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan metodik takliflar ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala nafaqat sport ta'limi tizimini modernizatsiya qilish, balki bo'lajak futbol murabbiylarining kasbiy kompetensiyalarini to'liq shakllantirish va ularning amaliy faoliyatga tayyorlik darajasini oshirish nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir.

T.M. Leederning "Futbolda murabbiylik ta'limi: zamonaviy muammolar va global istiqbollar"[1] nomli asarida futbol murabbiylarini tayyorlash tizimining zamonaviy holati va global tendensiyalari kompleks tarzda tahlil qilingan. U murabbiylik ta'limi dasturlarining pedagogik mazmuni, o'quv jarayonining tuzilishi hamda murabbiylarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratadilar.

Shuningdek, asarda murabbiylik faoliyatiga oid nazariy va pedagogik yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilib, ularning turli mamlakatlardagi amaliy tajribalar bilan uyg'unligi ko'rsatib o'tiladi. Kitobda murabbiylarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi, reflektiv ta'lim, tajribaga asoslangan o'qitish (learning by doing) va kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuvlarning samaradorligi ilmiy dalillar asosida yoritilgan.

Mazkur manba futbol murabbiylarini tayyorlash jarayonini ilmiy asosda modernizatsiya qilish, ta'lim dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda murabbiylik faoliyatida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish masalalarini o'rganishda muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda sport murabbiylarini tayyorlashning formal ta'lim tizimi (Rasmiy murabbiylik ta'limi) ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ushbu yo'nalish doirasida olib borilgan izlanishlarda murabbiylik ta'limi dasturlarining mazmuni, strukturasi, pedagogik modeli va ularning amaliy samaradorligi chuqur tahlil qilinadi [2]. Tadqiqotchilar asosan murabbiylarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda nazariy bilimlar, metodik tayyorgarlik va real sport amaliyoti o'rtasidagi uyg'unlik masalasiga alohida e'tibor qaratadilar.

Bir qator ilmiy ishlarda formal coach education dasturlarining samaradorligi murabbiylarning pedagogik tafakkuri, reflektiv fikrlashi va sportchi bilan ishlash madaniyatini rivojlantirish darajasi bilan bevosita bog'liqligi asoslab berilgan. Xususan, murabbiylik faoliyatida faqat texnik-taktik bilimlarning yetariligi emas, balki pedagogik bilimlar, psixologik tayyorgarlik, kommunikativ kompetensiyalar va tarbiyaviy yondashuvlarning ham muhim ahamiyatga egaligi ko'rsatib o'tiladi. Shu jihatdan, formal murabbiylik ta'limi dasturlarida sport pedagogikasi, sport psixologiyasi, ta'lim metodikasi va didaktika asoslarini integratsiyalash zarurati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Alohida tadqiqotlarda sport murabbiylarini tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi tafovut muammosi ochib beriladi. Mualliflar ta'kidlaganidek, ko'plab murabbiylik ta'limi dasturlarida nazariy bloklarning haddan tashqari ustunligi, amaliy mashg'ulotlar, trening simulyatsiyalari va real sport muhitida kuzatuv-amaliyotlarning yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani bitiruvchilarning kasbiy faoliyatga moslashuvini qiyinlashtirmoqda [3]. Shu sababli, zamonaviy sport coach education dasturlarida "learning by doing", tajribaga asoslangan ta'lim (experiential learning) va reflektiv o'qitish texnologiyalarini keng joriy etish zarurligi ilmiy asoslangan.

Bundan tashqari, xorijiy tadqiqotlarda murabbiylarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuv ustuvorligi alohida ta'kidlanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, murabbiy shaxsida faqat bilim va ko'nikmalar emas, balki kasbiy qadriyatlar, mas'uliyat, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va sportchi shaxsiga hurmat asosida ishlash madaniyati ham shakllantirilishi lozim. Formal coach education dasturlarining aynan ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgani ularning uzoq muddatli samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Umuman olganda, formal murabbiylik ta'limi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sport murabbiylarini samarali tayyorlash faqat fanlar majmuini o'qitish bilan cheklanib qolmasdan, balki pedagogik va amaliy komponentlarning integratsiyasi, reflektiv o'qitish, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan kompleks modelni talab etadi. Mazkur xulosalar oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlash jarayonini pedagogik jihatdan takomillashtirish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Dr. J. Smis tomonidan ishlab chiqilgan "Futbol pedagogik bilimlarini testini baholash" metodikasi murabbiylarning sport pedagogikasi sohasidagi nazariy bilimlarini tizimli ravishda baholashga qaratilgan [4]. Ushbu metodika didaktika, o'quv metodologiyasi va murabbiylikka

doir nazariy ko'nikmalarni aniqlash orqali ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini o'lchash imkonini beradi.

Shuningdek, P. A. Garsia tomonidan taklif qilingan "Amaliy murabbiylik ko'nikmalarini kuzatish shkalasi" metodikasi murabbiylarning amaliy faoliyatini, xususan, trening jarayonini boshqarish, qaror qabul qilish va taktika qo'llash ko'nikmalarini baholashga yo'naltirilgan [5]. Bu yondashuv murabbiylarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi va ularning professional rivojlanishini baholashda muhim vosita hisoblanadi.

1-Jadval.

**Dr. J. Smisning "Futbol pedagogik bilimlari testini baholash" metodikasi natijalar ko'rsatkichi N=345**

Daraja	Sinovchilar soni N=345	Miqdor (%)
1	15	4.35%
2	40	11.59%
3	120	34.78%
4	110	31.88%
5	60	17.39%
Jami:	345	100%

Mazkur tadqiqotda o'rta daraja ustunligi 3 ball 120 nafar 34.78 foiz 4 ball 110 nafar 31.88 foiz natijani qayd etdi. Bu ko'rsatkichlar shuni bildiradiki, murabbiylarning aksariyati pedagogik bilimlarda o'rtacha va yaxshi darajadani tashkil etdi. Past daraja (1-2 ball) nisbati esa 1-2 ball = 15 + 40 = 55 nafar 15.94 foiz past darajadagi bilimga ega murabbiylar soni nisbatan kam, lekin bu guruhga alohida e'tibor kerak. Yuqori daraja 5 ball nisbati 60 nafar 17.39 foiz yuqori pedagogik bilimga ega murabbiylar nisbati yetarli emas, shuning uchun ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni kuchaytirish muhim. Ya'ni metodika bo'yicha sinovchilar aksariyati o'rtacha va yaxshi darajada pedagogik bilimlarga ega. Lekin yuqori darajaga ega bo'lganlar nisbati past bo'lgani sababli, murabbiylarni yanada professional pedagogik tayyorgarlik bilan mustahkamlash zarur.

2-Jadval.

**P. A. Garsia tomonidan taklif qilingan "Amaliy murabbiylik ko'nikmalarini kuzatish shkalasi" metodikasi natijalar ko'rsatkichi N=345**

Daraja	Sinovchilar soni N=345	Miqdor (%)
1	10	2.90%
2	30	8.70%
3	100	28.99%
4	130	37.68%
5	75	21.74%
Jami:	345	100%

Metodika B bo'yicha olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, futbol murabbiylarining amaliy ko'nikmalari o'rtacha va yuqori darajada shakllangan. Sinov natijalariga qaraganda, 3 dan 5 gacha bo'lgan ballar oralig'ida baholangan murabbiylar soni 305 nafarni tashkil etib, bu barcha ishtirokchilarning 88,41% ini tashkil qiladi. Demak, murabbiylarning katta qismi amaliy ko'nikmalarda yetarli darajada tayyor. Past darajadagi ko'nikmalarga ega bo'lganlar (1-2 ball) esa 40 nafarni, ya'ni 11,60% ni tashkil qiladi. Bu nisbatan kam ko'rsatkich bo'lsa-da, ushbu guruhdagi murabbiylar bilan amaliy mashg'ulotlarda qo'shimcha nazorat va individual ish olib borish zarurati mavjudligini bildiradi. Shuningdek,

yuqori darajadagi ko'nikmalarga ega murabbiylar (5 ball) 75 nafarni, ya'ni 21,74% ni tashkil qilgan. Bu bo'yicha pedagogik bilimlar natijasiga nisbatan biroz yuqori ko'rsatkichdir. Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatadiki, murabbiylar amaliy ko'nikmalarda nazariy pedagogik bilimlarga qaraganda yaxshiroq tayyorlangan. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida murabbiylarni tayyorlash jarayonida pedagogik nazariy bilimlarni mustahkamlash va ularni amaliy mashg'ulotlar bilan integratsiyalashga alohida e'tibor qaratish zarur.

Xulosa qilib aytganda mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlash jarayoni, ularning pedagogik va amaliy tayyorgarligi tizimli tarzda o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, murabbiylarning amaliy ko'nikmalari pedagogik nazariy bilimlarga nisbatan yuqori darajada rivojlangan, ularning aksariyati amaliy mashg'ulotlarda samarali ishlashga tayyor. Shu bilan birga, pedagogik bilimlar darajasi o'rtacha bo'lib, yuqori pedagogik tayyorgarlikka ega murabbiylar nisbati past ekanligi aniqlangan.

Metodik tahlillar murabbiylarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni integratsiyalash, kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish va individual pedagogik ishlash zaruratini ko'rsatdi. Bu esa murabbiylarning professional tayyorgarligini oshirish, faoliyat samaradorligini yuqori darajaga yetkazish va sport pedagogikasi sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, reflektiv va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar oliy ta'limda futbol murabbiylarini tayyorlash jarayonini takomillashtirishning asosiy omillari sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalari uchun murabbiylar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, nazariy va amaliy bilimlarni uyg'unlashtirish hamda murabbiylarning kasbiy kompetensiyalarini yanada rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Leeder, T. M. (tahr.) (2022). Futbolida murabbiylar tayyorlash: zamonaviy muammolar va global istiqbollari. Routledge.
2. Selimi, E., Lascu, A., Serpiello, F., & Woods, C. T. (2023). Exploring football coaches' views on coach education, role, and practice design: PLoS One.
3. Nelson, L. J., Cushion, C. J., & Potrac, P. (2015). Formal, Non-formal and Informal Coach Learning.
4. Mallett, C. J., Trudel, P., & Rynne, S. (2016). Formal vs. Informal Coach Education. ResearchGate.
5. Selimi, E., Lascu, A., Serpiello, F., & Woods, C. T. (2023). Exploring football coaches' views on coach education, role, and practice design: An Australian perspective. PLoS One.

UO'K: 796/799

**BASKETBOLDA SPORTCHILARNI JAROXATLANISHNI OLDINI OLISH VA TIKLASH USULLARI**

<https://zenodo.org/records/18754739>

**Kodirov Muxammadxusanbek Abdizoxid o'g'li**  
**Otashev Diyorbek Rasuljon o'g'li**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada basketbol o'yinchilarini jarohatlardan saqlash va tiklash usullari haqida ma'lumot berilgan. Basketbol sportida jismoniy jarohatlar keng tarqalgan bo'lib, ular o'yinchilarning sport faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Maqola o'yinchilarda eng keng tarqalgan jarohatlar — oyoq, tizza, mushak, bo'yin va qo'l jarohatlari haqida so'z yuritadi. Shuningdek, jarohatlardan saqlanish uchun jismoniy tayyorgarlik, to'g'ri texnika, isitish va sovutish mashqlari, sport anjomlarini tanlash kabi usullarni ko'rib chiqadi. Jarohatlardan keyingi tiklanish jarayonlari, fizioterapiya, rehabilitatsiya va psixologik tiklanish usullari haqida ham batafsil tushuntirishlar berilgan. Maqola basketbol o'yinchilarining jarohatlardan saqlanish va tiklanish jarayonlarini yaxshilashga qaratilgan ilmiy va amaliy yondashuvlarni tahlil qiladi.

